

MILLIY MUNOSABAT VA QADRIYATLARDA REALIYA HODISASINING IFODALANISHI.

O'rino'yeva Mubinabonu Iqboljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi kungacha ajdodlarimizdan yetib kelgan va bazilari iste'molimizdan chiqiqib ketgan milliy qadriyatlarimizni anglatuvchi realiyalarni taxlil qilishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: qadriyat, realiya, bazram, mandir, urf-odat.

Milliy munosabatlar va qadriyatlar, bir mamlakatning tashqi siyosati va uning xalq bilan o'zaro munosabatlari haqida ma'lumot beradi. Bu munosabatlar va qadriyatlar, mamlakat tarkibidagi ko'plab etnik guruhlarning bo'lishi, tarixiy, madaniy, diniy va boshqa sabablarga ko'ra kelib chiqishiga olib keladi. Realiya hodisasining ifodalanishi esa mamlakatning joriy holati va dunyo siyosati bilan bog'liq ma'lumotlarni ifodalashdir. Bu hodisalar dunyo jamiyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni ta'minlaydi. Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, milliy munosabatlar va qadriyatlar realiya hodisasining ifodalanishida muhim ahamiyatga ega. Milliy munosabat va qadriyatlarda realiya hodisasining ifodalanishi, milliy identitet, milliyatshunoslik, milliy taraqqiyot va milliy o'zaro aloqalar kabi muhim mavzularga oiddir. Qadriyatlar esa bu mavzularning o'ziga xos tushunchalari, ma'nolari va ta'sirining ko'rsatilishi bilan bog'liqdir. Qadriyatlar, asosan, milliy munosabatlarda o'rtacha qarorlarni qabul qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar, odatda, muxlislik, etnik guruh yoki davlatning davlatligi kabi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bunday qadriyatlar xalqimizni alohida yaratilgan etnik guruhlarga bo'lib boshqa insonlardan farq qilish uchun ishlatilmaydi. Milliy qadriyatlar, bir milliy jamiyatning tarixi, madaniyati, din va

odatlari bilan bog‘liq tanga ko‘zga olinadigan manbalardir. Bu qadriyatlar jamiyatning uning ayrim xususiyatlari va turli sohalarda joylashgan yashash shakllariga asoslanganlikka ko‘ra aniqlanadi. Bu milliy qadriyatlar jamiyatning barcha sohalarida ko‘p turlarda ifodalangan bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ular tarixi, san’ati, madaniyati, odatlari va adabiyoti bo‘lishi mumkin. Bu qadriyatlar o‘nlab xalqaro manbalarda ko‘pincha aniqlangan va dunyoqarashda muhim ahamiyat kasb etgan. Milliy qadriyatlar dunyoda uning butunligiga asoslangan muhim manbalar hisoblanadi. Ularning xizmatidan foydalanish orqali insonlar dunyoqarashni o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Milliy qadriyatlar jamiyatda insonlar orasida birlashishni va turli millatlarga hurmatni kuchaytirishga yordam beradi. Ajdodlarimizdan qolgan yodgorlik asarlarni tahlil qilish mobaynida hozirgacha saqlanib qolgan milliy qadriyatlarimiz bundan bir necha ming yillar ilgari paydo bo‘lganiga guvoh bo‘ldik. Yuqoridagi fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda tarixiy asarlarga va ularning tarjimalariga nazar solsak milliyligimiz va qadriyatlarimizning naqadar go‘zal ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asaridan keltirilgan quyidagi parchani tahlil qilamiz:

Choyni ichib bo‘lg‘andan keyin qutidor fotiha o‘qub o‘rnidan turdi: – Men senga aytib qo‘yay, Kumush, – dedi turar ekan qutidor Oftob oyimga, – bu kunga bir mehmon aytgan edim. Cho‘ringni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplag‘an ko‘rpalariningi ber, tanchaga o‘shani yopsin.

Ushbu matn tarjimasida madaniy munosabatlarga doir realiya o‘z ifodasini topgan. Realiya vazifasida, odatda, narsa-buyum, ashylar ko‘p qo‘llansa, ayrim o‘rinlarda milliy munosabat va qadriyatlar ham mohiyatiga ko‘ra realiya hodisasini ifoda etadi. Keltirilgan matn parchasida o‘zbek xalqi madaniyatiga xos bo‘lgan “qayta nomlash” funksiyasi mavjud. Bu hodisa metonimiya asosidagi ma’no ko‘chishi natijasida yuz beradi. Qayta nomlash er-xotin munosabatlarida kuzatiladi. Er-xotin bir-birlariga farzandlarining ismi bilan murojaat qilishgan. Bu esa o‘ziga xos me’yor, odob-andisha, hurmat belgisi sanalgan. Mazkur matn tarjimasida yana bir jihat ko‘zga tashlanadiki, bu holat milliy

mental xususiyat bilan bog‘liq. Qutidor Oftoboyimga yuzlanib “Kumush” deb (qizining nomi bilan) murojaat qiladi. O‘zbeklarda er-xotin munosabatida o‘ziga xos qadriyat mavjud. Er va xotin bir-birining ismini aytib chaqirishi mumkin emas – bu hurmatsizlik belgisi hisoblangan. “Onasi” yoki “otasi” deyish ham sharqona sharm-hayoga to‘g‘ri kelmagan. Eng yaxshi usul: farzandning (odatda, to‘ng‘ich farzandning) nomi bilan atash hisoblangan. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘zbekona qadriyatimiz bizni turkiy xalqlar orasida o‘ziga xos madaniyat ila ajratib turadi.

“Devonu lug‘otit turk” da shu kunga qadar yetib kelgan milliy qadriyat va an’analalarimiz, urf-odatlarimiz xalqlarning turli bayram-marosimlari, xalq o‘yinlari, kundalik odatlar fonida ifodalangan. Mahmud Koshg‘ariy o‘z navbatida asarda milliy bayramlar masalasiga ham to‘xtalib, unga shunday ta’rif bergen edi: “**Bazram** – odamlar orasida shodlik va kulgu. Gullar ochilgan joylarga bazram yer, ya’ni yoqimli yer demakdir. O‘g‘uzlar hayit kunini bazram deydilar, ya’ni shodlik va yoqimli kun”.¹ Demak, qadimgi turkiy urug‘lardan o‘g‘uzlar musulmonlar ayyomi – Hayitni bayram sifatida oldindan nishonlashgan ekan. Bizda ikkita Hayit ayyomi bo‘lib biri Ramazon Hayiti, biri esa Qurbon Hayiti. Ramazon oyida ro‘za tutishlik barcha musulmonlar uchun farz hisoblanib, biz bu oyni intazorlik bilan kutamiz. Ikkinchchi Hayitimiz Ramazon oyining oxiriga to‘g‘ri kelib bunda insonlar qurbanliklar qiladilar. Jonzotlarni qurbanlik qilib ehson qilishlik bizga juda qadimdan beri an’ana sifatida o‘tib kelmoqda. Musulmon xalqlarda Hayit kunlarda bir-biriga hayitliklar berish urf-odati ham hozirgacha saqlanib qolgan bo‘lib, barcha musulmon xalqlar bu bayramlarni yuqori kayfiyatda kutib oladilar. Bundan tashqari Hayit namozlari jamoat bo‘lib o‘qiladi. Haqiqatdan ham bayramlar shunday ruhiy kayfiyatni vujudga keltiradiki, unda odamlar boshqa kunlardagiga nisbatan xursand va shod bo‘ladilar. Shunday nuqtai nazardan qaraganda, bayram ma’lum bir vaqtdagi ideal hayot hisoblanadi.

¹ Кошғарий Махмуд . Девону луғотит турк. I – III. Т.: Фан, 1960-1963. – С.447

Asarda turkman, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, uyg‘ur va boshqa turk xalqlarining adabiyoti va ularning milliy qadriyatlari haqida yozilgan. Devonda keltirilgan milliy qadriyatlari aks ettiruvchi marosimlardan tanishib chiqamiz:

Mandiri [23, 195] – kelin bilan kuyov ishtirokida kechasi yig‘iladigan majlis, bunda kelin va kuyovning ustidan pul sochiladi. Chigil xalqlarida shunday odat bo‘lgan. Yana kelin otdan tushayotgan paytda kuyov kelinning joriyasiga suyanib tushishi uchun tayoq beradi. Bu boylar qo‘llaydigan odat ekanligini muallif ta’kidlab o‘tgan [380].

Bu odat hozirgacha saqlanib qolgan bo‘lib faqatgina xalqlar tomonidan ba’zida bo‘rrtirilgan holda uchrab turishi hech kimga sir emas. Albatta, bunday qadriyatlarimizning boshida, ya’ni oila qurish, ikki yoshning boshini bir qilishda sovchilik an’analari muhim o‘rin tutadi. “Devonu lug’otit turk” asarida milliy urf-odatlardan biri bo‘lgan sovchilik haqida qiziq ma’lumot beradi. Ma’lumki, sovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni VII–VIII asrlardagi O‘rxun-Enasoy bitiklarida ham uchratish mumkin. Buyuk davlat arbobi, hukmdor Tunyuquqning bitiktoshida “sab” – “so‘z” va “gap” ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, “Irq bitigi” (fol kitobi) da esa “sab” – “so‘z”, “sabchi” – “xabarchi”, “so‘z keltiruvchi” ma’nosida qo‘llanilgan. O‘rta asrlarning mashhur tilshunos olimi Mahmud Qoshg‘ariy ushbu atamani “sovchi-kelin va kuyov o’rtasida bir-biriga xabar eltuvchi” deb izohlagan.² “Sabchi” degan so‘zning ma’nosи “xabarlar yetkazib beruvchi odam”, “Xudoning xabar yetkazuvchi insoni” ma’nolarida ishlatgan. Demak yangi oilaning paydo bo‘lishida sovchilik udumi uzoq o‘tmishda shakllanganligiga amin bo‘lamiz.

Milliyligimizni anglatuvchi yana bir marosimlardan biri “chaqmoq” deb ataladagan to‘y o‘tkazish. Bu marosimda oila a’zolari bir-biriga taom vasovutma ichimliklarni taqsimlab, salqlarni yopishadi. Ushbu to‘yda musiqalar ijro etiladi.

Milliy qadriyatlarmizni anglatuvchi bir necha bayramlar ham mavjud bo‘lib, bu bayramlar asosan bizning millatga mansub bo‘lgan xalqlar tomonidan nishonlanadi.

² Кошгариј Махмуд . Девону луготит турк. I – III. Т.: Фан, 1960-1963. – С.122

Milliyligimizni ifodalovchi bayramlarimizdan biri bu – Navro‘z bayramidir. Nav – yangi, ro‘z – kun degan ma’nolarni anglatib bu “Yangi kun” deganidir. Musulmon xalqlarning yangi yil bayrami hisoblanadi. Bu bayramda kun va tun tenglashadi hamda burj almashadi. Navro‘z bayramida xalqimiz orasida o’tkaziladigan tadbirlar va o‘yinlar mavjud bo‘lib, har yili yurtimizda bu bayram katta tantana bilan nishonlanadi.

Hayvonlar nomi bilan ataluvchi muchal yillari, burj haqidagi ilk ma’lumotlarni ham “Devonu lug‘otit turk” asaridan topamiz. O‘n ikki hayvon nomi bilan ataladigan vaqt birligi – muchal Sharq tafakkuri mahsulidir. Muchal bo‘yicha yangi yil 21 mart – Navro‘zdan boshlanadi. G‘arb madaniyati turmush tarzimizga shunchalik ta‘sir o’tkazganki, ko‘philigidiz sof sharqona bo‘lgan muchalni 1-yanvarda kiradi, deb o‘ylaymiz. Turli tortishuvlarga qaramay shu narsa aniqki, muchal Osiyoning sharqi qismida yashaydigan xalqlar, xususan, turkiylarning qadimgi yil hisobi bo‘lgan. Mana, muchalning kelib chiqishi haqidagi “Devon” da keltirilgan talqin:

“Turklar o‘n ikki xil hayvon ismini o‘n ikki yilga qo‘yanlar. Tug‘ilishi, jang tarixlari va boshqalarini ana shu yillar aylanishidan hisoblaydilar. Buning kelib chiqishi shunday: turk xoqonlaridan biri o‘zidan bir necha yil oldin o‘tgan urushni o‘rganmoqchi bo‘lgan, shunda u urush bo‘lib o‘tgan yilni aniqlashda yanglishgan. Bu masala yuzasidan (xoqon) qavmi bilan kengashdi va aytdi: “Biz bu tarixni (aniqlashda) qanchalik yanglishgan bo‘lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo‘lgach, biz endi o‘n ikki oy va osmondagi o‘n ikki burjga asoslanib, o‘n ikki yilga (nom) qo‘yishimiz kerak toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik bo‘lib qolsin”. Ular: “Aytganingizdek bo‘lsin” – deyishdi.

Xoqon ovga chiqdi va odamlarga vahshiy hayvonlarni Ilal daryosi tomon quvishni buyurdi, bu juda katta suv. Odamlar ov qilib hayvonlarni suv tomon hayday boshladilar, shunda o‘n ikki hayvon suvdan o‘tdi. O‘n ikki yilni ana shu o‘n ikki hayvon ismi bilan atadilar. Eng oldin suvdan o‘tgan hayvon sichqon bo‘ldi. Shuning uchun yil boshi uning nomi bilan ataldi, shu so‘zga yil qo‘sib, sichqon yili deb atadilar. Undan keyin o‘tganlari quyidagi tartibda bo‘ldi:

Ud (sigir) yili; bars (yo‘lbars) yili; tovushqon (quyon) yili; nak (timsoh, hozir baliq deyiladi) yili; yilon (ilon) yili; yund (ot) yili; qo‘y yili; bijin (maymun) yili; taqag‘u (tovuq) yili; it yili; to‘ng‘iz yili. To‘ng‘izga yetgandan keyin hisob yana sichqon yilidan boshlanadi...[2, 140-141] Ushbu muchal yillari nomini anglatuvchi hayvonlarni realiyalar darajasiga ko‘tarishimiz mumkin. Chunki aynan shu hayvonlarning nomi muchal yillarini anglatuvchi birliklar bo‘lib, tarixan va etnomadaniy jihatdan boshqalardan farq qiladi. Ularning ramziy ma’nosni ham bor. Turklar bu yillarning har qaysisida biror hikmat bor, deb taxminlaydilar. Masalan, sigir yili bo‘lsa, urush ko‘p bo‘ladi, chunki sigir bir-biri bilan suzishadigan hayvon. Tovuq yili kirsa, oziq-ovqat ko‘payadi, lekin odamlarda tashvish ortadi. Chunki tovuqning ovqati don bo‘lib, uni topib yejish uchun narsalarni titib yuradi. Timsoh (baliq) yili kirsa, yog‘ingarchilik va hosil ko‘p bo‘ladi, chunki u suvda yashaydi. To‘ng‘iz yili kirsa, sovuq, qor va fitna ko‘p bo‘ladi. Shunga o‘xhash har yilning ma’lum ramziy ifodasi mavjud. Bayramlarimizning aksariyati barcha turkiy xalqlar orasida keng nishonlanadi. Bu bayramlarda milliyligimizni ifodalovchi xalq o‘yinlari o‘ynaladi va insonlarga yuqori kayfiyat baxsh etadi. O‘zbekona tarixiy o‘yinlar, milliy bayramlarimizga ko‘rsatilgan xursandchilik va e’tiqodni ifodalash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu o‘yinlar, milliy jasorat, kelajakka qarab maqsadli ishlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirish hamda xalqaro aloqalar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq o‘yinlari haqidagi yozma ma’lumotlarni ham Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. – T.: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1960, 500 b.
2. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni. Devonu lug‘otit turk. II tom. – T.: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1961, 428 b.
3. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni. Devonu lug‘otit turk. III tom. T.: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1963, 463 b.

- 4.Xolmirzayev Sh. Saylanma 3-jild. – Toshkent, 2006. – B.278
- 5.Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2001. – B.234
6. Mirmuhsin. Umid. – Toshkent, 2016. – B.98.
7. Mahmud Koshg‘ariy „Devonu lug‘atit turk“. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. Tom I II III. – Toshkent, 1960-1963. T.1. – 1960. 499 b. T.2. – 1961. 427 b. T.3. – 1963. 466 b